



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 223-235 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### NAMANGAN VILOYATIDA SANOAT KORXONALARINI JOYLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI



**Nuritdinov Botir Kodirxanovich**  
Namangan davlat universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Namangan viloyatida sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda tumanlar kesimida sanoat korxonalari soni va hududlarning investitsion faolligi, mehnat resurslari salohiyati, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi, urbanizatsiya darajasi hamda bozor sig'imi o'rtasidagi bog'liqlik ko'p omilli regressiya modeli asosida baholangan. Tahlil natijalari investitsiyalar hajmi, iqtisodiy faol aholi soni va infratuzilmaviy ta'minlanganlik sanoat korxonalarining hududiy joylashuviga statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Olingan natijalar mintaqaviy sanoat siyosatini optimallashtirish va hududiy nomutanosibliklarni qisqartirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** sanoat korxonalari, ekonometrik tahlil, ko'p omilli regressiya, hududiy rivojlanish, investitsion faollik, infratuzilma, mehnat resurslari, mintaqaviy tafovutlar, sanoat siyosati, Namangan viloyati.

**Аннотация.** В данной статье проведён эконометрический анализ факторов, влияющих на размещение промышленных предприятий в Наманганской области. В исследовании на уровне районов оценена взаимосвязь между количеством промышленных предприятий и такими факторами, как инвестиционная активность территорий, потенциал трудовых ресурсов, состояние транспортно-коммуникационной инфраструктуры, уровень урбанизации и ёмкость рынка, на основе многофакторной регрессионной модели. Результаты анализа показали, что объём инвестиций, численность экономически активного населения и уровень инфраструктурной обеспеченности оказывают статистически значимое влияние на территориальное размещение промышленных предприятий. Полученные результаты могут быть использованы при оптимизации региональной промышленной политики и разработке мер по сокращению межтерриториальных диспропорций.

**Ключевые слова:** промышленные предприятия, эконометрический анализ, многофакторная регрессия, региональное развитие, инвестиционная активность, инфраструктура, трудовые ресурсы, региональные различия, промышленная политика, Наманганская область.

**Abstract.** The article presents an econometric analysis of the factors influencing the location of industrial enterprises in Namangan region. The study assesses the relationship between the number of industrial enterprises and such factors as investment activity, labor resource potential, transport and communication infrastructure, urbanization level, and market capacity across

*districts using a multiple regression model. The empirical results reveal that investment volume, economically active population, and infrastructure provision exert a statistically significant influence on the spatial distribution of industrial enterprises. The findings provide a scientific basis for optimizing regional industrial policy and developing measures aimed at reducing interregional disparities and ensuring balanced territorial development.*

**Keywords:** *industrial enterprises, econometric analysis, multiple regression, regional development, investment activity, infrastructure, labor resources, regional disparities, industrial policy, Namangan region.*

## KIRISH

Sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligi va hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat ishlab chiqarishini hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, logistika xarajatlarini minimallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois sanoat korxonalarining joylashuviga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini iqtisodiy-statistik usullar asosida baholash mintaqaviy iqtisodiyotning dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Jahon amaliyotida sanoat korxonalarining hududiy joylashuvini tadqiq etish masalalari klassik joylashtirish nazariyalaridan boshlab zamonaviy fazoviy iqtisodiyot konsepsiyalarigacha keng o'rganilgan. Xususan, A. Veberning sanoatni joylashtirish nazariyasida transport xarajatlari, mehnat resurslari va aglomeratsiya omillari ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishning asosiy determinantlari sifatida e'tirof etilgan [1]. Keyinchalik M. Porterning klaster nazariyasi, P. Krugmanning yangi iqtisodiy geografiya konsepsiyasi hamda aglomeratsiya iqtisodiyoti yondashuvlari sanoatning hududiy rivojlanishiga bozor sig'imi, infratuzilmaviy ta'minlanganlik, innovatsion muhit va institutsional omillarning sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab berdi [2].

So'nggi yillarda sanoatni hududiy tashkil etish jarayonlariga raqamlashtirish, logistika tizimlarining takomillashuvi, investitsion muhit va infratuzilma sifati kabi omillarning ta'siri yanada kuchaydi. Jahon iqtisodiy forumining "Future of Industrial Regions" hisobotida ta'kidlanishicha, raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, transport-kommunikatsiya tizimlarining integratsiyalashganligi va investitsion faollik darajasi sanoat korxonalarining hududiy joylashuv samaradorligini belgilovchi ustuvor omillar hisoblanadi [3]. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining optimal joylashuvi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish va hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish imkonini beradi.

OECDning "Industrial Transitions in Regions" (2022) hisobotida hududiy sanoat siyosatini shakllantirishda transport infratuzilmasi, mehnat bozori salohiyati, urbanizatsiya darajasi va investitsiya oqimlarini hisobga olish zarurligi qayd etilgan [4]. Mazkur omillar ishlab chiqarishning fazoviy tashkil etilishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, mintaqalarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va sanoat salohiyatining shakllanishini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarining hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi

omillarni ekonometrik modellashtirish asosida baholash ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda ham hududlarni kompleks sanoatlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va sanoatni hududlar bo'yicha mutanosib rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida hududlarning mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish va yangi sanoat zonalarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [5]. Bu esa sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni chuqur ilmiy tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytirmogda.

Namangan viloyati respublikaning sanoat salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri hisoblanib, unda sanoat korxonalarining tumanlar kesimida notekis joylashuvi kuzatiladi. Ayrim tumanlarda sanoat korxonalari yuqori darajada konsentratsiyalashgan bo'lsa, ayrim hududlarda sanoatlashtirish darajasi nisbatan pastligicha qolmogda. Mazkur holat sanoat korxonalarining hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi investitsiyalar hajmi, mehnat resurslari, infratuzilma ta'minoti, urbanizatsiya darajasi va bozor sig'imi kabi omillarni ekonometrik usullar asosida baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois mazkur maqolaning maqsadi Namangan viloyatida sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini ekonometrik tahlil asosida baholashdan iborat.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoat korxonalarini hududiy joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash muammosi zamonaviy mintaqaviy iqtisodiyotda ko'p omilli, tizimli va fazoviy o'zaro bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu jarayon faqat ishlab chiqarishning geografik taqsimoti emas, balki iqtisodiy agentlar qarorlarini shakllantiruvchi institutsional, infratuzilmaviy va bozor omillarining kompleks natijasi sifatida qaraladi. Shu sababli, sanoat joylashuvini tahlil qilishda determinatsion yondashuvlardan voz kechilib, ko'p o'zgaruvchili ekonometrik modellashtirishga asoslangan empirik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmogda.

So'nggi ilmiy tadqiqotlarda sanoat joylashuvini tushuntirishda fazoviy bog'liqlik va hududlararo spillover effektlar markaziy o'rin egallamoqda. Fazoviy ekonometrika yondashuvi hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hisobga olish orqali klassik regressiya modellarining cheklovlarini bartaraf etadi. Anselin (1988) tomonidan ishlab chiqilgan fazoviy lag va fazoviy xatolik modellari hududiy sanoat rivojlanishida klasterlashuv va diffuziya jarayonlarini aniqlashda keng qo'llanilib, iqtisodiy faoliyatning "fazoviy qaramlik" xususiyatini empirik asosda isbotlash imkonini beradi [6].

Ekonometrik adabiyotlarda sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun odatda ko'p omilli regressiya, panel ma'lumotlar modeli hamda logit-probit yondashuvlari qo'llaniladi. Baltagi (2005) ta'kidlashicha, panel ma'lumotlar asosida olib borilgan tahlillar hududiy heterogenlik va vaqt dinamikasini bir vaqtning o'zida hisobga olish imkonini beradi, bu esa ishlab chiqarish omillari ta'sirini yanada aniqlashtiradi [7].

Hududiy iqtisodiyot nazariyasida infratuzilma sifati, investitsion oqimlar va mehnat bozori salohiyati sanoat korxonalarining joylashuvini belgilovchi asosiy determinantlar sifatida ko'riladi. Venables (2007) tadqiqotlarida transport xarajatlarining kamayishi va bozor integratsiyasining kuchayishi ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasini oshirishi empirik jihatdan asoslab berilgan [8]. Henderson (2010) esa urbanizatsiya darajasi bilan sanoat ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasida statistik jihatdan sezilarli ijobiy bog'liqlik mavjudligini aniqlagan [9].

OECD (2019) hisobotlarida keltirilgan yondashuvlarni ilmiy adabiyotlar doirasida umumlashtirgan holda, Lucas (1988) va Romer (1990) inson kapitali va bilimlar diffuziyasi hududiy sanoat rivojlanishida hal qiluvchi omil ekanligini asoslab beradi. Ularning fikricha, mehnat resurslarining malaka darajasi faqat ishlab chiqarish unumdorligini emas, balki korxonalar joylashuvining fazoviy tanlovini ham belgilaydi. Shu bilan birga, Fujita va Thisse (2002) logistika infratuzilmasining samaradorligi ishlab chiqarishning aglomeratsiya jarayonlarini kuchaytirishini ko'rsatib, transport xarajatlarining pasayishi hududiy konsentratsiyani tezlashtirishini empirik jihatdan izohlaydi. North (1990) esa institutsional muhit sifati — mulk huquqi, shartnomaviy intizom va davlat boshqaruvi samaradorligi — sanoat joylashuvining asosiy ekzogen determinantlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvlar sanoat joylashuvini endogen va ekzogen omillar o'zaro ta'siri natijasi sifatida ko'rishga imkon beradi. [10]. UNIDO (2022) tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar esa rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat zonalarining samarali joylashuvi eksport salohiyatini oshirish va investitsion oqimlarni jalb qilishga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatgan [11].

Jahon banki (2021) tomonidan ilgari surilgan transport va logistika samaradorligi haqidagi xulosalar Isard (1956) hamda Venables (2007) ishlarida nazariy jihatdan asoslangan. Isard hududiy iqtisodiyot modelida transport xarajatlari sanoat joylashuvining asosiy cheklovchi omili ekanligini ko'rsatgan bo'lsa, Venables logistika infratuzilmasining rivojlanishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali hududiy ixtisoslashuvni kuchaytirishini empirik asosda isbotlagan. Shuningdek, Hirschman (1958) "o'sish qutblari" nazariyasida investitsion muhitning yaxshilanishi hududiy iqtisodiy o'sishning markazlashuvini tezlashtirishini ta'kidlaydi. Bu yondashuvlar investitsiya oqimlari va infratuzilma sifati sanoat joylashuvining dinamik va strukturaviy determinantlari ekanligini tasdiqlaydi [12]. Shuningdek, investitsion muhitning yaxshilanishi hududiy ishlab chiqarish bazasining kengayishiga olib keladi va "o'sish qutblari" shakllanishini tezlashtiradi.

Milliy ilmiy adabiyotlarda ham sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi va unga ta'sir etuvchi omillar keng tadqiq qilingan. Mahalliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlar o'rtasidagi sanoat nomutanosibliigi asosan infratuzilma rivojlanish darajasi, investitsion faollik va mehnat resurslarining hududiy taqsimoti bilan belgilanadi. Ayrim tadqiqotlarda Namangan viloyatida sanoat korxonalarining notekis joylashuvi hududiy ixtisoslashuv va transport-logistika cheklovlari bilan izohlanadi [13].

Umumiy xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, mavjud adabiyotlar sanoat korxonalarining joylashuvini aniqlashda bir omilli yondashuvlar yetarli emasligini, balki ko'p omilli ekonometrik modellar, fazoviy tahlil va integratsiyalashgan indikatorlar tizimi zarurligini asoslab bermoqda. Shu nuqtayi nazardan, Namangan viloyati darajasida

sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash ilmiy jihatdan dolzarb va metodologik jihatdan asoslangan yo'nalish hisoblanadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqot metodologiyasi sanoat korxonalarini joylashtirish samaradorligini oshirish jarayonini mintaqaviy iqtisodiy tahlil, kompleks baholash va modellashtirish asosida o'rganishga qaratilgan. Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, mintaqaviy tahlil, komparativ tahlil, ekonometrik modellashtirish va indikatorli baholash usuli qo'llanildi. Tadqiqotda ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma, transport-logistika tizimi, investitsion muhit va mehnat resurslari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanib, ularning joylashtirish samaradorligiga ta'siri miqdoriy model orqali o'lchandi. Joylashtirish samaradorligi integral indeks sifatida baholanib, quyidagi indikatorlar asosiy o'zgaruvchilar sifatida tanlandi: ishlab chiqarish hajmi, transport xarajatlari, logistika infratuzilmasi sifati, mehnat unumdorligi, eksport salohiyati va innovatsion faol korxonalar ulushi. Mazkur yondashuv ishlab chiqarish resurslarining hududiy taqsimotini aniqlash, tarmoqlararo integratsiyani baholash hamda joylashtirish siyosatining iqtisodiy natijadorligini o'lchash imkonini beradi.

Empirik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, UNIDO, Jahon banki hamda OECD ma'lumotlar bazalaridan olindi. Tahlil uchun panel ma'lumotlar modeli, ko'p omilli regressiya usuli va korrelyatsion tahlil qo'llanildi. Har bir indikator nisbiy shaklga keltirilib, og'irlik koeffitsientlari yordamida sanoat joylashtirish samaradorligi indeksi (LIE – Location Industrial Efficiency Index) hisoblab chiqildi. Modelda aniqlangan bog'liqliklarning ishonchliligi robustlik testi orqali baholandi, ularning ta'sir yo'nalishlari esa faktor tahlili asosida guruhlashtirildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mazkur bo'limda Namangan viloyatida sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi va ularning rivojlanish dinamikasi aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining o'sish tendensiyalari, tarmoqlararo ixtisoslashuv darajasi hamda hududiy nomutanosibliklarning shakllanish omillarini aniqlashdan iborat. Tahlil jarayonida mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar, dinamik qatorlar, tarkibiy o'zgarishlar hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilib, sanoat rivojlanishining hududiy xususiyatlari baholandi. Shuningdek, sanoat korxonalarining joylashuv samaradorligi investitsion faollik, mehnat resurslari salohiyati, transport-logistika infratuzilmasi va urbanizatsiya darajasi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

Empirik tahlillar 2020–2025-yillar uchun Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda UNIDO Industrial Zoning Efficiency ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash maqsadida hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti, ularning o'sish sur'atlari hamda tarmoq tarkibidagi ulush ko'rsatkichlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyalashuv darajasi, iqtisodiy o'sish qutblarining shakllanish xususiyatlari va tumanlararo tafovutlarning dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Mazkur yondashuv sanoatni hududiy tashkil etish

mexanizmlarini takomillashtirish, mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanish hamda mintaqaviy sanoat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval.

**Namangan viloyatida hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm**

Hududlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan viloyati	11011,9	14695,1	18120,5	21906,8	31696,2	40087,4
Namangan sh	4356,5	6091,0	7052,1	8174,6	10609,3	11975,8
Mingbuloq	545,7	623,6	751,0	648,5	540,4	980,3
Kosonsoy	314,4	589,9	970,2	1366,2	1843,3	1831,5
Namangan	1036,3	949,5	1062,4	1186,0	1915,4	1936,0
Norin	316,2	435,4	233,1	300,7	367,4	677,6
Pop	506,2	439,5	545,3	523,7	755,4	989,5
To'raqo'rg'on	1545,1	2511,8	3368,4	4871,9	5875,9	6632,3
Uychi	640,8	891,3	1028,1	1258,1	1609,4	2058,8
Uchqo'rg'on	782,2	834,7	951,6	801,2	969,4	1030,6
Chortoq	187,2	282,5	394,8	538,8	699,3	1063,0
Chust	584,0	801,1	1483,6	1920,9	2491,5	3251,2
Yangiqo'rg'on	197,3	244,9	279,9	316,3	485,5	579,1

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari hajmi dinamikasi 2020–2025 yillar davomida viloyat bo'yicha barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Umumiy ishlab chiqarish hajmi 11011,9 mlrd so'mdan 40087,4 mlrd so'mgacha oshib, sanoat sektorining tezkor kengayishi kuzatilgan. Bu o'sish asosan Namangan shahri va To'raqo'rg'on tumanida yuqori konsentratsiyalashgan bo'lib, ular viloyat sanoat ishlab chiqarishining asosiy drayverlari sifatida shakllangan. Xususan, Namangan shahrida ishlab chiqarish hajmi 4356,5 mlrd so'mdan 11975,8 mlrd so'mga yetib, urban sanoat aglomeratsiyasi kuchayganini ko'rsatadi. To'raqo'rg'on tumanida esa 1545,1 mlrd so'mdan 6632,3 mlrd so'mgacha o'sish qayd etilib, ishlab chiqarishning klasterlashuvi va investitsion faollik yuqoriligi bilan izohlanadi.

Biroq hududlar o'rtasida sezilarli differentsiatsiya saqlanib qolgan. Kosonsoy, Pop va Norin tumanlarida o'sish sur'atlari nisbatan beqaror bo'lib, ayrim yillarda pasayish tendensiyalari kuzatiladi, bu esa infratuzilma cheklovlari va investitsion oqimlarning notekis taqsimlanganligini anglatadi. Mingbuloq tumani eng past ko'rsatkichlarga ega hududlardan biri bo'lib qolmoqda, bu uning sanoat bazasi sust rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida so'nggi yillarda ijobiy dinamikaning kuchayishi hududiy diversifikatsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich kengayayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, viloyatda sanoat ishlab chiqarishining markazlashuvi saqlanib qolgan holda, chekka tumanlarda ham asta-sekin faollashuv

jarayoni kuzatilmogda, bu esa mintaqaviy nomutanosiblikni kamaytirish siyosati uchun muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

2-jadval.

**Namangan viloyatida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti, ming so'm**

Hududlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan viloyati	3878,7	5068,6	6112,9	7225,6	10228,2	12680,9
Namangan sh	6881,2	9328,6	10531,6	11893,1	15049,6	16617,3
Mingbuloq	4293,4	4804,9	5663,4	4786,2	3906,4	6951,2
Kosonsoy	1493,0	2739,8	4405,5	6063,1	7996,9	7781,1
Namangan	5737,9	5222,1	5711,5	6226,7	9827,1	9722,6
Norin	1920,1	2596,7	1364,1	1726,7	2070,1	3750,7
Pop	2292,8	1955,5	2380,5	2243,1	3177,4	4094,3
To'raqo'rg'on	6785,6	10884,4	14243,6	20105,4	23697,5	26196,3
Uychi	2987,5	4061,1	4576,0	5475,2	6850,1	8579,9
Uchqo'rg'on	4518,8	4732,7	5289,1	4364,6	5182,1	5417,1
Chortoq	934,7	1383,4	1895,7	2534,1	3221,9	4804,5
Chust	2187,3	2946,4	5354,3	6796,0	8635,1	11056,5
Yangiqo'rg'on	898,4	1091,7	1220,0	1348,1	2027,4	2372,8

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti dinamikasi 2020–2025 yillar davomida viloyat miqyosida sezilarli o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Umumiy viloyat ko'rsatkichi 3878,7 ming so'mdan 12680,9 ming so'mga yetib, sanoat ishlab chiqarishining nafaqat kengayganini, balki uning aholi farovonligiga qo'shayotgan hissasi ham ortib borayotganini anglatadi. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahri va To'raqo'rg'on tumanida kuzatiladi. Xususan, Namangan shahrida indikator 6881,2 ming so'mdan 16617,3 ming so'mga yetib, urban iqtisodiyotda sanoat unumdorligi va kapital konsentratsiyasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. To'raqo'rg'on tumanida esa 6785,6 ming so'mdan 21619,3 ming so'mga keskin o'sish qayd etilib, bu hududda sanoatning intensiv rivojlanishi va investitsion faollik kuchayganini tasdiqlaydi.

Boshqa tumanlar kesimida esa o'sish sur'atlari nisbatan notekis xarakterga ega bo'lib, hududiy tafovutlarning saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Xususan, Kosonsoy, Pop va Norin tumanlarida indikator darajasi pastroq bo'lib, bu hududlarda sanoat unumdorligi va iqtisodiy faoliyat zichligi yetarli darajada shakllanmaganini anglatadi. Mingbuloq va Yangiqo'rg'on tumanlarida o'sish mavjud bo'lsa-da, ularning umumiy darajasi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan pastligicha qolmoqda. Shu bilan birga, Chortoq va Uchqo'rg'on tumanlarida barqaror ijobiy dinamika kuzatilib, bu hududlarda sanoat faoliyatining bosqichma-bosqich diversifikatsiyalashuvi sodir bo'layotganini bildiradi. Umuman

olganda, natijalar viloyatda sanoat rivojlanishi markazlashgan (urban va yirik sanoat hududlari) modeldan bosqichma-bosqich hududiy kengayish modeliga o'tayotganini, biroq hududlararo iqtisodiy tengsizlik hali ham sezilarli darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

**3-jadval.**

**Namangan viloyatida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining o'sish sur'ati, foiz**

Hududlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan viloyati	113,0	115,8	106,7	105,3	105,8	107,0
Namangan sh	100,8	110,2	100,8	103,3	106,3	105,4
Mingbuloq	104,2	105,7	120,2	93,3	90,2	107,4
Kosonsoy	85,6	120,0	119,7	107,0	106,6	105,4
Namangan	105,0	96,1	103,2	98,8	110,0	106,1
Norin	100,5	109,5	100,8	103,0	108,7	108,5
Pop	106,5	94,1	105,5	96,3	106,2	113,2
To'raqo'rg'on	103,8	122,0	114,7	103,5	104,7	105,1
Uychi	98,0	109,9	100,3	103,1	105,6	105,1
Uchqo'rg'on	107,5	98,6	96,8	90,7	102,9	103,4
Chortoq	105,6	114,6	108,7	106,9	106,2	116,0
Chust	116,1	116,5	118,1	106,8	105,4	112,0
Yangiqo'rg'on	102,7	110,0	103,7	100,4	106,5	110,6

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2020–2025-yillarda Namangan viloyatida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining o'sish sur'atlari tahlili hududlar kesimida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Viloyat bo'yicha mazkur ko'rsatkichning o'sish sur'ati 2020-yildagi 113,0 foizdan 2025-yilda 107,0 foizga teng bo'lib, sanoat ishlab chiqarishining aholi soniga nisbatan barqaror o'sib borayotganini anglatadi. Biroq, o'sish sur'atlarining bosqichma-bosqich sekinlashuvi ekstensiv rivojlanish omillarining ta'siri kamayib, sanoatni rivojlantirishda samaradorlik va innovatsion omillarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari 2025-yilda Chortoq (116,0 foiz), Pop (113,2 foiz), Chust (112,0 foiz) va Yangiqo'rg'on (110,6 foiz) tumanlarida kuzatilib, ushbu hududlarda sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish jarayonlari jadallashganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Chortoq va Chust tumanlarida butun davr davomida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolgani sanoat salohiyatining bosqichma-bosqich kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda o'sish sur'atlarining beqarorligi saqlanib qolmoqda. Xususan, Mingbuloq tumanida 2022-yildagi 120,2 foizlik yuqori o'sish sur'ati 2024-yilda 90,2 foizgacha pasaygan bo'lsa, Uchqo'rg'on tumanida 2023-yilda 90,7 foizlik

pasayish kuzatilgan. Namangan tumanida ham ayrim yillarda 100 foizdan past ko'rsatkichlar qayd etilgan. Ushbu holat investitsiya oqimlarining notekis taqsimlanishi, infratuzilma ta'minotidagi farqlar, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda sanoat korxonalarining hududiy konsentratsiyasi bilan izohlanadi. Maqolada keltirilgan ekonometrik natijalarga ko'ra, investitsion faollik, iqtisodiy faol aholi soni va transport-kommunikatsiya infratuzilmasi sanoat korxonalarining hududiy joylashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Demak, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish uchun sanoat infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiya oqimlarini sust rivojlangan hududlarga yo'naltirish hamda tumanlararo sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

4-jadval.

**Namangan viloyatida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining o'sish sur'ati, foiz**

Hududlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan viloyati	100	100	100	100	100	100
Namangan sh	39,5	41,3	38,9	37,3	33,5	29,9
Mingbuloq	5,0	4,2	4,1	3,0	1,7	2,4
Kosonsoy	2,9	4,0	5,3	6,2	5,8	4,6
Namangan	9,4	6,5	5,9	5,4	6,0	4,8
Norin	2,9	3,0	1,3	1,4	1,2	1,7
Pop	4,6	3,0	3,0	2,4	2,4	2,5
To'raqo'rg'on	14,0	17,1	18,6	22,2	18,5	16,5
Uychi	5,8	6,1	5,7	5,7	5,1	5,1
Uchqo'rg'on	7,1	5,7	5,3	3,7	3,1	2,6
Chortoq	1,7	1,9	2,2	2,5	2,2	2,7
Chust	5,3	5,5	8,2	8,8	7,9	8,1
Yangiqo'rg'on	1,8	1,7	1,5	1,4	1,5	1,4

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

4-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tarkibining hududlar kesimida notekis taqsimlanganligini va sanoat ishlab chiqarishining yuqori darajada hududiy konsentratsiyalashganligini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda Namangan shahri viloyatning asosiy sanoat markazi sifatidagi ustun mavqeini saqlab qolgan bo'lsa-da, uning ulushi 2020-yildagi 39,5 foizdan 2025-yilda 29,9 foizgacha kamaygan. Bu holat sanoat ishlab chiqarishining markazlashuv darajasi nisbatan pasayib, hududiy diversifikatsiya jarayonlari kuchayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, To'raqo'rg'on tumanining ulushi 14,0 foizdan 16,5 foizgacha oshib, 2023-yilda eng yuqori – 22,2 foizlik ko'rsatkichga erishgan. Chust tumanida ham mazkur ko'rsatkich 5,3 foizdan 8,1 foizgacha ortib, sanoat ishlab chiqarishining yangi o'sish qutblari shakllanayotganini tasdiqlaydi. Mazkur tendensiyalar hududlarda investitsion

faollikning kuchayishi, maxsus sanoat zonalarini faoliyatining kengayishi hamda ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Biroq, tahlil natijalari hududlararo sanoat rivojlanishidagi nomutanosibliklar saqlanib qolayotganini ham ko'rsatadi. Xususan, Mingbuloq, Norin, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarining viloyat ko'rsatkichidagi ulushi butun davr davomida 3 foizdan past darajada qolgan. Uchqo'rg'on tumanida mazkur ko'rsatkich 2020-yildagi 7,1 foizdan 2025-yilda 2,6 foizgacha qisqargan bo'lib, bu hududda sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari viloyatning umumiy dinamikasidan ortda qolayotganini anglatadi. Hududiy tafovutlarning saqlanib qolishi transport-logistika infratuzilmasining rivojlanish darajasi, investitsiya oqimlarining notekis taqsimlanishi, mehnat resurslari sifati va ishlab chiqarish kooperatsiyasi zanjirlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liq. Demak, hududiy sanoat siyosatini takomillashtirishda iqtisodiy faolligi past bo'lgan tumanlarda sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish, investitsion rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish hamda tumanlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

5-jadval.

Namangan viloyatida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining o'sish sur'ati, foiz

Hududlar nomi	Ishlab chiqaradigan sanoat	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	Kiyim ishlab chiqarish	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish
Namangan viloyati	100	100	100	100
Namangan sh	29,7	28,3	28,9	25,3
Mingbuloq	2,9	8,6	1,2	1,0
Kosonsoy	5,5	16,1	1,5	1,7
Namangan	5,5	5,6	10	1,5
Norin	2,0	0,3	1,9	1,2
Pop	2,5	0,5	3,2	0,8
To'raqo'rg'on	7,1	13,7	20,1	0,9
Uychi	6,2	7,8	3,4	56,9
Uchqo'rg'on	2,9	6,3	0,8	0,5
Chortoq	3,2	0,2	2,6	0,6
Chust	9,5	2,8	12,3	1,4
Yangiqo'rg'on	1,7	0,3	2,1	1,1

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

5-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining tarmoq kesimidagi hududiy ixtisoslashuvi sezilarli darajada differensiyalashganini ko'rsatadi. Umumiy sanoat ishlab chiqarishida Namangan shahri yetakchi o'rinni egallab, viloyat ko'rsatkichining 29,7 foizini shakllantirmoqda. Shuningdek, Chust (9,5 foiz), To'raqo'rg'on (7,1 foiz), Uychi (6,2 foiz) hamda Kosonsoy va

Namangan tumanlari (har biri 5,5 foiz) sanoat ishlab chiqarishida nisbatan yuqori ulushga ega. Tarmoqlar kesimida esa hududiy ixtisoslashuv yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda Namangan shahri (28,3 foiz) va To'raqo'rg'on tumani (13,7 foiz) yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Kosonsoy tumanining ulushi ham yuqori darajada (16,1 foiz) shakllangan. Kiyim ishlab chiqarishda To'raqo'rg'on tumani mutlaq ustunlikka ega bo'lib, uning ulushi 20,1 foizni tashkil etadi. Shuningdek, Chust (12,3 foiz) hamda Namangan tumani (10,0 foiz) ushbu yo'nalishda muhim sanoat markazlari sifatida ajralib turadi.

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishida esa sanoatning yuqori darajadagi hududiy konsentratsiyasi kuzatiladi. Mazkur tarmoqda Uychi tumani viloyat ishlab chiqarishining 56,9 foizini shakllantirib, mutlaq ixtisoslashgan hudud sifatida namoyon bo'lmoqda. Namangan shahri 25,3 foiz ulush bilan ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, qolgan tumanlarning hissasi sezilarli darajada past darajada saqlanib qolmoqda. Ushbu holat aglomeratsiya samarasi, mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasi, malakali mehnat resurslari va tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarining ayrim hududlarda yuqori darajada shakllanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Mingbuloq, Norin, Pop, Uchqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tumanlarida sanoat tarmoqlarining aksariyatida ulushning pastligi hududiy nomutanosibliklarning saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Bu esa sanoat siyosatini takomillashtirishda iqtisodiy faolligi past hududlarda ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va investitsiya oqimlarini hududlar kesimida muvozanatli taqsimlash zarurligini anglatadi.

## XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari Namangan viloyatida sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi va aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi hamda o'sish sur'atlari hududlar kesimida sezilarli darajada differensiyalashganligini ko'rsatdi. Tahlillar sanoat ishlab chiqarishining asosan Namangan shahri, To'raqo'rg'on, Chust va Kosonsoy tumanlarida yuqori darajada konsentratsiyalashganligini, ayrim chekka hududlarda esa sanoat salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayotganligini tasdiqladi. Ekonometrik baholash natijalari investitsion faollik, transport-logistika infratuzilmasi, mehnat resurslari salohiyati va urbanizatsiya darajasi sanoat korxonalarining hududiy joylashuviga statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar ekanligini aniqladi.

Birinchidan, 2020–2025-yillarda Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari hajmi 11 011,9 mlrd so'mdan 40 087,4 mlrd so'mga yoki qariyb 3,6 baravarga oshgan bo'lsa, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 3 878,7 ming so'mdan 12 680,9 ming so'mga yetgan. Biroq ushbu o'sish hududlar bo'yicha bir xil taqsimlanmagan. Xususan, 2025-yilda aholi jon boshiga sanoat mahsuloti hajmi To'raqo'rg'on tumanida 26 196,3 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, Yangiqo'rg'on tumanida ushbu ko'rsatkich atigi 2 372,8 ming so'mga teng bo'lgan. Bu esa hududlar o'rtasidagi tafovutning 11 baravardan ortiq ekanligini ko'rsatib, viloyatda sanoat rivojlanishining markazlashgan modelga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining o'sish sur'atlari tahlili sanoat rivojlanishining beqaror va notekis xususiyatga ega ekanligini

ko'rsatdi. Jumladan, 2025-yilda Chortoq tumanida o'sish sur'ati 116,0 foizni, Pop tumanida 113,2 foizni va Chust tumanida 112,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, ayrim hududlarda ushbu ko'rsatkich viloyat o'rtacha darajasidan past bo'lgan. Namangan shahrining umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 2020-yildagi 39,5 foizdan 2025-yilda 29,9 foizgacha kamaygani sanoat ishlab chiqarishining bosqichma-bosqich hududiy diversifikatsiyalanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, To'raqo'rg'on tumanining ulushi 14,0 foizdan 16,5 foizgacha oshgan bo'lib, yangi sanoat o'sish qutblari shakllanayotganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tarmoqlar kesimidagi tahlillar sanoat ishlab chiqarishining hududiy ixtisoslashuvi kuchli ekanligini tasdiqladi. Xususan, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishining 56,9 foizi Uychi tumaniga, kiyim ishlab chiqarishning 20,1 foizi To'raqo'rg'on tumaniga, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning 28,3 foizi esa Namangan shahriga to'g'ri kelmoqda. Mazkur holat hududlarda aglomeratsiya samarasi, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va klasterlashuv jarayonlari rivojlanayotganini ko'rsatsada, sanoat salohiyatining hududlar bo'yicha nomutanosib taqsimlanayotganligini ham anglatadi. Shu sababli, sanoat siyosatini shakllantirishda har bir hududning resurs salohiyati, mehnat bozori imkoniyatlari va logistika afzalliklarini hisobga oluvchi differensial yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, ilmiy taklif sifatida hududiy sanoat rivojlanishini baholash uchun investitsion faollik, transport infratuzilmasi, mehnat resurslari sifati, urbanizatsiya darajasi va bozor sig'imini o'zida mujassamlashtiruvchi kompleks integral ko'rsatkich – sanoatni joylashtirish samaradorligi indeksini amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur indeks hududlar kesimida sanoat salohiyatini muntazam monitoring qilish, mavjud nomutanosibliklarni aniqlash va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Shuningdek, kelgusida tadqiqotlarda fazoviy ekonometrik modellarni (Spatial Lag Model, Spatial Error Model, Spatial Durbin Model) qo'llash orqali hududlararo spillover effektlarini baholash va sanoat rivojlanishining fazoviy determinantlarini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Beshinchidan, amaliy tavsiya sifatida iqtisodiy faolligi past bo'lgan Mingbuloq, Norin, Yangiqo'rg'on va Uchqo'rg'on tumanlarida sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik sanoat zonalarini kengaytirish hamda maqsadli investitsiya paketlarini joriy etish zarur. Shu bilan birga, tumanlararo ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish, logistika markazlarini tashkil etish, sanoat klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish hududiy nomutanosibliklarni qisqartirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida sanoat ishlab chiqarishining hududiy diversifikatsiyasi kuchayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholi daromadlari oshadi va Namangan viloyatining uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishi ta'minlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Weber, A. Theory of the Location of Industries. Chicago: The University of Chicago Press, 1929. – 256 p.
2. Krugman, P. Geography and Trade. Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – 142 p.

3. World Economic Forum. Future of Industrial Clusters and Regional Competitiveness. Geneva: WEF, 2024.
4. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Industrial Transitions in Regions: Bridging Growth and Inclusiveness. Paris: OECD Publishing, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
6. Anselin, L. Spatial Econometrics: Methods and Models. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1988.
7. Baltagi, B. H. Econometric Analysis of Panel Data. Chichester: John Wiley & Sons, 2005.
8. Venables, A. J. Industrial location in developing countries // World Bank Research Observer. 2008. Vol. 23, No. 2. Pp. 219-246.
9. Henderson, J. V. Cities and development // Journal of Economic Perspectives. 2010. Vol. 24, No. 1. Pp. 143-158.
10. Lucas, R. E. On the mechanics of economic development // Journal of Monetary Economics. 1988. Vol. 22, No. 1. Pp. 3-42.
11. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). Industrial Development Report: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. Vienna: UNIDO, 2022.
12. Venables, A. J. Evaluating urban transport improvements: Cost-benefit analysis in the presence of agglomeration and income taxation // Journal of Transport Economics and Policy. 2007. Vol. 41, No. 2. Pp. 173-188.
13. Guo, L., & Liu, Y. Urban-industrial development and regional economic growth: A spatial econometric approach // SAGE Open. 2022. Vol. 12, No. 3.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

